

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISH MASALALARI

*Toyirov Nuriddin Doniyorbek o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti tyutori
E-mail: toyirovnuriddin25@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish masalalarini ko‘rib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari hamda xalqaro hujjatlardagi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishdagi tutgan o‘rni yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, jinoyatchilik, shart-sharoit, ruxiyat, Plenum qarori.

Аннотация: В данной статье автор рассматривает причины преступности несовершеннолетних. Будет освещена роль законодательства Республики Узбекистан и международных документов в профилактике преступности несовершеннолетних.

Ключевые слова: Несовершеннолетние, преступность, условия, дух, решение Пленума.

Abstract: In this article, the author examines the issues of preventing juvenile delinquency. The role of the legislation of the Republic of Uzbekistan and international documents in the prevention of juvenile delinquency will be highlighted.

Key words: minors, crime, conditions, spirit, decision of the Plenum

Mavzuga kirishishdan oldin jinoyatni oldini olish nima ekanligi haqida qisqacha to‘htalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Kriminologiyada jinoyatlarning oldini olish deganda, jinoyat va boshqa huquqbazarliklar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va omillarni bartaraf etish yoki ularni neytrallashtirishga qaratilgan davlat va jamiyat chora-tadbirlari majmuini tushunish odat tusini olgan¹.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda davlat va jamiyatning roli eng ustivor vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respubliksi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda davlat siyosati darajasiga ko‘tardi va huquqiy poydevorni mustahkamlash va bu orqali amaliy tadbirlarni olib bordi hamda olib bormoqda.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda xalqaro miqyosda qabul qilingan hamda ushbu jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatini yuritishda

¹ Криминология. – М., 2006. – 203-204-6.

1989-yilda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya, “Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahbariy tamoyillari” (Er-Riyod rahbariy tamoyillar 1980-y) va boshqa shu kabi xalqaro hujjatlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasining 45-moddasiga ko‘ra voyaga yetmaganlarning huquqlari davlat himoyasidadir deyilgan². Bundan tashqari voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyachilikni oldini olish maqsadida Respublikamizda 1991-yil 20-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan bo‘lsa, ushbu qonun 2016-yil yangi tahrirda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi hamda qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi³.

O‘zbekiston Respublikasi Parlamentining voyaga yetmaganlar hamda yoshlar bilan ishslash borasidagi faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) tashkil etildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan har haftaning payshanba kuni mamlakatimizda Huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish profilaktika kuni sifatida belgilangani bolalarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, o‘smirlar orasida huquqbazarliklarning oddini olish tizimini mustahkamlash, ota-onalar hamda vasiylik organlarining mas’uliyatini oshirish borasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda muhim yo‘nalish bo‘ldi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, oila, ta’lim muassasalari va keng jamoatchilik zimmasiga voyaga yetmaganlar huquqbazarligi va jinoyatchiligining oldini olish, hududlarda voyaga yetmaganlarning ma’naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ko‘maklashish, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga yordam berish vazifalari yuklatildi⁴.

Voyaga yetmaganlarning jinoyatchiliginini baholashda ularning yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi sabab va shart-sharoitlarni inobatga olish lozim bo‘ladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda esa shu jinoyatning kelib chiqishiga zamin bo‘lgan omillarga qarshi kurashish orqali erishiladi. Biz birinchi bobda ta’kidlab o‘tkanimiz, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kelib chiqishga sharoit yaratgan bir qator omillarni sanab o‘tgan edik.

2 <https://constitution.uz/uz/clause/index#section7>

3 <https://uzmarkaz.uz/uzc/news/voyaga-etmaganlar-ortasida-huquqbazarliklarning-oldini-olish-bojicha-ajrim-fikrlar>

Ushbu sabab va shart-sharoitlarga yechim topilsa kelib chiqishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning oldi olinadi. Misol tariqasida keltiradigan bo‘lsak, oiladagi salbiy muhitning voyaga yetmagan shaxs ruxiyatiga, tarbiyasiga ta’sirini olishimiz mumkin. Ushbu holatda avvalo ota-onal farzandga o‘rnak hisoblanadi. Agar ota-onal tarbiyalni, ruhan sog‘lom bo‘ladigan bo‘lsa, farzandiga yetarlicha tarbiya beradigan bo‘lsa ushbu farzand jinoyat sodir etmaydi. Bundan tashqari voyaga yetmaganlarning kunning bo‘sh vaqtida ijtimoiy banligini ta’minalash ham ular sodir etadigan jinoyatchilikning oldini olish uchun zamin bo‘la oladi. Chunki ular bo‘sh vaqtidan qanday foydalanishni bilishmaydi, shu orqali jinoyat yo‘liga kirishadi. Ularning bo‘sh vaqtlarni o‘zlari yoqtirgan sport to‘garaklari, san’at va musiqa mashg‘ulotlari, hunarmandchilik faoliyatlari bilan

mashg‘ul qilmoq maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bolada to‘g‘ri huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish lozim, ular bu orqali jinoyat nima va uning huquqiy oqibatlari nimaga olib kelishi mumkinligiga ko‘zi yetadi va huquqbazarlik hamda jinoyat sodir etishdan o‘zilarini tiyishadi.

Bunda huquqiy tarbiya va tadbirlarni olib borishda nafaqat voyaga yetmaganlar balki ularning ota-onalari, pedagog xodimlar, mahalla faollari va boshqa shaxslarga ham alohida e’tibor qaratish hamda ularning huquqiy bilimlarini talab darajasiga olib chiqish lozim bo‘ladi.

Shu o‘rinda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish uchun o‘z takliflarimizni ilgari suradigan bo‘lsak, avvalo O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlar uchun qo‘llaniladigan jarima jazosini bekor qilish lozim. Chunki sudlar tomonidan beriladigan jarima jazosi voyaga yetmaganlarning holatiga nisbatan real munosabatni tartibga solmaydi, qilmishga nisbatan mutanosib emas deb ayta olamiz. Sababi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 82-moddasida voyaga yetmaganlar uchun jarima jazosi bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha etib belgilangan⁵. Bu miqdor hozirgi kunda 660 ming so‘mdan 6 mln 600 minggachani tashkil etadi. Jamiyatimizda boy oilalar ko‘p va ba’zi oilalarning farzandlari tanti, erkatoy bo‘lishadi. Ular jinoyat sodir etishga moyil bo‘lishadi. Agarda shunday oila farzandlari jinoyat sodir etishsa-yu sud tomonidan ularga jarima jazosining eng ko‘p miqdori berilgan taqdirda ham mu summa boy oila uchun arzimasdek tuyuladi va farzand qilmishni anglamagan holda yana jinoyat sodir etishda davom etaveradi. Bolaning fikrlash doirasida jazo shunday ekan, pulim borku, yana jinoyat sodir qilsam yana jarimani to‘lab yuraveraman degan o‘y o‘taveradi. O‘ziga to‘q, boy oila farzandining do‘stlari ham boy oiladan bo‘ladi. Halqimizda “Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi” degan ajoyib bir naql bor.

4 <https://uzmarkaz.uz/uzc/news/voyaga-etmaganlar-ortasida-huquqbazarliklarning-oldini-olish-bojicha-ajrim-fikrlar>

Bejiz biz bu naqlni keltirmadik, chunki jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxsning yonida yurgan birodarlari ham jinoyat sodir etishga moyil bo‘ladi hamda ularda ham yuqoridagi kabi fikrlar bo‘lishi mumkin. Ushbu holatda biz jazo tayinlash bilan jinoyatni oldini olish emas, aksincha, unga zamin yaratgan bo‘lamiz. Jarima jazosini o‘rniga to‘g‘ridan to‘g‘ri majburiy jamoat ishlari jazosini tayinlash maqulroq. Sababi qilgan qilmishi uchun jazodan qutulib bo‘lmasligini jinoyat sodir etgan shaxs ham uning yaqinlari ham anglab yetadi hamda jamiyatda adolat tushunchalari mavjud ekanligini yana bir bor xis etishadi.

Ikkinci ko‘rinishda esa, sud tomonidan jinoyat sodir etgan kambag‘al oila farzandiga jarima jazosining 3 barobari tayinlangan bo‘lsa ham uning uchun og‘irlik qilishi turgan gap. Bola jarimani to‘lash uchun mакtabga bormasdan mardikorlik qilib 3-4 kunda to‘lashi mumkin. Bu esa o‘smir yoshidagi bolaga katta zarba bo‘lishi mumkin. Chunki u bilim dargohidan uzoqlashadi, o‘qishdan, bilim darajasidan tengdoshlaridan ortda qolishi mumkin. Bu esa uning psixologiyasida o‘zgarish hosil qilib yana jinoyat sodir etishiga olib kelishi, jamiyatda, davlatda, hayotda adolat yo‘q degan tushunchani shakllantirishi mumkin. Bundan tashqari voyaga yetmagan kambag‘al oilaning farzandi jarima jazosini o‘tashlik uchun pul topish maqsadida o‘g‘irlik qilishi mumkkin. Bu yana jinoyat sodir etishlik uchun omil vazifasini o‘tamoqda.

Aslida har ikkala holatda ham jarima jazosi jinoyatni oldini olish emas, balki jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda. Buning oldini olish uchun esa jarima jazosini qo‘llamasdan voyaga yetmaganlar uchun belgilangan tartibda majburiy jamoat ishlarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu orqali voyaga yetmaganlar orasida jazodan qutulib bo‘lmasligini, adolat har doim tantana qilishini, boshqa jinoyatga qo‘l urmaslikni anglab yetishadi.

Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning oldini olish borasida ularni jismonan, ruhan hamda ma’naviy kamol topishda keng imkoniyatlar yaratib bermoqlik lozim bo‘ladi. Voyaga yetmaganlarni san’atga qiziqtirish maqsadida ko‘proq teatrлarga, muzeylarga olib borish, ularni kitobga qiziqtirish uchun turli kitobxonlik tadbirlarini o‘tkazib turish lozim bo‘ladi. Bunda ular bo‘sh vaqtlarini foydali ishlar bilan o‘tkazgan bo‘lishadi. Misol tariqasida oladigan bo‘lsak, Prezidentimizning 2018-yil 12-maydagi “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlарini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan “Yosh kitobxon” ko‘rik tanlovidan buyuk ajodolarimizning nodir merosi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqr o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy

5 <https://lex.uz/docs/111453#195717>

qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish ko‘zlangan⁶. Respublika bosqichida esa g‘oliblarga turli ko‘rinishdagi qimmatbaho sovrinlar taqdim etiladi.

Yana bir taklif keltirishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasini amalda o‘lik modda hamda sanksiyasidagi jarima miqdori kam ekanligini ko‘rishimiz mumkin⁷. Chunki ushbu moddani amalda asosan qishloq sharoitida yashovchi ota-onalar buzishi mumkin, lekin bu huquqbuzarliklar latentligicha qolaveradi. Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga tuzilgan taqdirda ham arzimagan summa ularning ongida huquqbuzarlik sodir etganligini yuzaga keltirmaydi. Sababi qishloq sharoitida tekin ishchi kuchi doim kerak bo‘ladi. Bu tekin ishchi kuchini esa oila o‘z farzandlari orqali qoplashga urinadi. Natijada bola mакtabga bormaydi, bilim olmaydi. Maktabga bormagan bola jinoyat sodir etishga ham moyil bo‘ladi. Maktab o‘qituvchilari ham bunga ko‘z yumgan holda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlariga murojaat etishmaydi.

Ushbu holatda ota-onalar jarima miqdorini to‘lagan holda yana farzandlarini maktabga jo‘natmagan tarzda o‘zlarining ishlarini bitirib ketishaveradi. Aslida moddada keltirilgan jarima miqdorini ko‘patirgan holda ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni bola tarbiyasi hamda ta’lim olishi qanchalar muhim ekanligini bildirmoq lozimdir.

Davlatimizda voyaga yetmaganlar hamda yoshlarning bilim salohiyatiga bo‘lgan e’tibor, ularning keljakda o‘z o‘rnini topib ketishi uchun, yurt ravnaqi hamda kelajagi uchun umumiy o‘rtalim majburiy etib belgilangan. Bilimga boy bo‘lgan davlat hech kimga qaram bo‘lmaydi, tobe bo‘lmaydi, o’sish hamda rivojlanish ortadi, iqtisodiy ta’minot yaxshilanadi, siyosiy jarayonlar jadallahashi. Buning uchun avvalo biz maktablarda ta’lim sifatini yaxshilashimiz, farzandlarimizning maktablarga o‘z vaqtida borishi, bilim olishiga bo‘lgan e’tiborimizni kuchaytirishimiz lozimdir. Bu ishlarda maktab xodimlarining ham o‘rni o‘zgacha o‘ringa ega hisoblanadi. Chunki maktablarga kelib-ketayotgan o‘quvchi yoshlarning davomatini, bilim salohiyatini tekshirish maktab xodimlarining qo‘lidadir.

Ko‘p holatlarda maktablarga kelmagan o‘quvchilarning davomatiga plus belgisining bosilishi ham xodimlarning o‘z ishiga nisbatan mas’uliyatsizlik bilan yondashib borayotganligidan darak beradi. Biz ta’lim dargohlarida davomatlarni qattiq nazoratga olishimiz lozim. Chunki maktabga kelmagan bola bilim tomonidan saviyasiz, o‘z tengdoshlaridan ortda qolish ehtimollari ortadi. Buning natijasida keljakda huquqbuzarlik hamda jinoyatlar sodir etish holatlariga qo‘l uradi.

6 <https://xs.uz/uzkr/post/yosh-kitobkhon-korik-tanlovining-tuman-shahar-bosqichida-necha-kishi-qatnashadi>

7 <https://lex.uz/docs/97664#198010>

Sababi vaqtida maktabda darslarga kelmagan, jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etadigan bo'lsa uning oqibatlari nimalarga olish kelishi mumkinligidan xabari bo'lman bo'ladi. O'quvchi maktabga kelmasa bu vaqtida u jinoyat yo'liga kirishi, jinoiy guruhlar tarkibida faoliyat olib borishi, psixotrop moddalar va ularning analoglarini iste'mol qilishi kabi harakatlarni sodir etishi mumkin. Uydan chiqqan bola ota-onaning hayolida bolasi maktabda sinfdoshlari bilan birga, maktabda esa bola uyda ota-onasi bilan birga degan hayollar bilan birga bo'ladi. Lekin bola jinoyat olamida kezib yuribdi. Buning oldini olish maqsadida o'quvchi maktabda kelmadimi o'qituvchi darhol huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat etishligi lozim. Huquqni muhofaza qilish organlari nima sababdan bola maktabga kelmaganligini aniqlashtirish, sababsiz bola maktabga bormagan bo'lsa tegish qonunchilik doirasida chora ko'rishi lozim. Shuning uchun qonunchilikka qo'shimcha kiritilishi lozimki, bu borada maktab o'qituvchilarining zimmasiga mas'uliyat yuklatilsin. Jamiyatda uchrab turadigan, ta'lim dargohlarida uchrab turadigan illatlardan biri ham shudir aslida. Maktabga haftalab, oylab kelmagan o'quvchilarning davomatlari to'liq, baholari esa a'lo darajada. Buning zamiri o'laroq maktab o'quvchisi jinoyat yo'liga kirib ketgan bo'lishi, qizlar fohishalik qilib pul topayotgan bo'lishi, o'g'il bolalar bar, klub, diskotekalarda ishlab tarbiyasi buzilib ketayotgan bo'lishi, bolalarning bedarak yo'qolish kabi vaziyatlar ko'paymoqda.

Bundan tashqari kriminologik jihatdan voyaga yetmaganlarning jinoyatchilini oldini olish yuzasidan yana shuni taklif sifatida keltirishimiz mumkinki, maktablarda huquqshunoslikka oid dars soatlarini ko'paytirishimiz lozim. Sababi voyaga yetmagan shaxs 18 yoshga kirgunga qadar bo'lган davrini maktabda o'tkazadi. Bundan so'ng mustaqil hayotga qadam qo'yadi. Maktab davrida o'quvchilarga shaxs sifatida o'zlarining huquq va majburiyatlarini o'rgatishimiz lozimdir. O'z huquq va majburiyatlarini bilgan shaxs kelajakda jinoyat sodir etmasligi mumkin. Chunki jinoyat sodir etadigan bo'lsa oqibati nimalarga olib kelishligiga ko'zi yetadi.

Voyaga yetmaganlar orasida yuzaga kelishi mumkin bo'lган jinoyatlarning oldini olish borasida jamoatchilikning ham o'rni katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Jamoatchilikning ahamiyatini yoritib o'tadigan bo'lsak, bola tarbiyani ikki joyda olishini yuqorida ham sharxlab o'tdik, ya'ni bola tarbiyani uyda – oila davrasida, oila azolaridan oladigan bo'lsa, ikkinchisi bola tarbiyani uyidan tashqarida – ko'chada, jamoat joylarida, maktabda, ishxonadagi insonlardan olishi mumkin. Biz jamiyatda mavjud qadriyatlarga, yurish-turish qoidalariga qat'iy amal qilib yashaydigan bo'lsak, farzandlarimiz ham tartib-qoidalarga rioya qilib yashashni o'rganadi. Ushbu holatda ularda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyat shakllanadi. Shu o'rinda jamiyatdagi insonlarning ham o'rni beqiyosdir. Bunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, "Bir bolaga yetti mahalla ota-onasi hisoblanadi" deydi xalqimiz. Agarda shu naqlga amal qilib mahallabay ishlash tizimida ham voyaga

yetmaganlar uchun alohida e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, jinoyatchiliklarning oldini olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “mahallatuman-viloyat-respublika” darajasida ishlash asosi belgilab berilganligini, bu borada hududiy sektor rahbarlari ham mahalla darajasidagi o‘ziga biriktirilgan hududdagi har bir xonadonga har chorakda kamida bir marta borib, u yerdagi vaziyat, ijtimoiy muhit, bolalar tarbiyasiga munosabat, aniqlangan muammolarni hal

etish choralari va bildirilgan takliflarni qayd etib borishi zarurlinigi ta’kidlagan edi⁸. Bu ham jinoyatchilikning oldini olish borasidagi ilk qadamlardan bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Inson zotiga dunyoviy ta’lim bilan birlgilikda diniy ta’lim ham juda zarur hisoblanadi. Din insonga qanday yashash kerakligini, qanday yo‘llar bilan halol rizq topish mumkinligini, insonlar bilan o‘rtadagi muomala qanday bo‘lishi lozimligini, nima qilsa jamiyatga, yurtga foydasi tegishi mumkinligini o‘rgatadi. Shunday ekan biz ham ulg‘ayib borayotgan farzandlarimizga yoshligidan dinni to‘g‘ri o‘rgata olsak, halol nima harom nima ajratishni, o‘ziga qanday do‘sht topish kerakligini, jinoyat sodir etsa oqibati nimalarga olib kelishini anglata olsak voyaga yetmagan o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning oldini olinadi.

Yuqoridagilarga qo‘sishimcha qiladigan bo‘lsak, voyaga yetmagan o‘rtasida yuzaga keladigan jinoyatlarning oldini olish borasida davlat organlarining ham o‘rni beqiyosdir. Bu borada 2010-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunining 8-moddasida bir qator davlat organlari keltirilgan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar;
2. ichki ishlar organlari;
3. ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari;
4. vasiylik va homiylik organlari;
5. sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari;
6. mehnat organlari;
7. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari.

Ushbu yuqoridagi davlat organlarning vazifalari bir-biriga o‘xshash bo‘lsada, ularning o‘zlarining qiladigan asosiy vazifalaridan farq qilishi mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash mumkinki, 7 ta davlat organlari ichida voyaga yetmagan

8 Президент вояга етмаганлар орасида жиноятчилик ортганлиги учун раҳбарларга танбех берди - Sputnik Ўзбекистон, 10.08.2017 (sputniknews.uz)

9 <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekistonning-kelajak-yoshlari-imkoniyat-va-huquqiy-kafolat>

jinoyatchiligining oldini olish borasida bolalar masalalari bo‘yicha komissiya asosiy vazifani bajarsa, Ichki ishlar organlari tarkibiga kiruvchi voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi ham o‘z vakolatlari doirasida asosiy o‘ringa ega hisoblanadi. Lekin yuqorida nomlari keltirilgan davlat organlari va tashkilotlarning qonunchilikda qayd etilgan huquq va majburiyatlari bajaralishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra Bosh prokuror hamda unga bo‘ysunuvchi prokurorlar olib boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, voyaga yetmaganlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning oldini olishda avvalo ularning tarbiyasiga bog‘liq bo‘lgan har bir jihatga alohida e’tibor qaratish lozim ekanligini ko‘rib o‘tdik. Aslida jinoyat sodir etilgunga qadar bo‘lgan davr muhim hisoblanadi. Chunki bu davr oralig‘ida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan jinoyatchilikning oldini olish uchun kerakli choralarni, tadbirlarni ko‘rish imkoniyati yuzaga keladi. Taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniy tarbiya to‘g‘risida quyidagi jumlalarni keltirgan edi: “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”. Bolaga birgina uning ota-onasi emas, hammamiz mas’ulmiz. Sababi bola yurtning ertasi, kelajagi hisoblanadi. “Yangi O‘zbekistonni yoshlar bilan birga quramiz” – deb bejiz aytmagan edilar O‘zbekiston yurtboshisi⁹. Har bir jinoyatni sodir etilishida biror bir sabab yoki omil mavjud bo‘ladi. Shu sabab va omillarga vaqtida barham berilsa, fuqarolarga to‘g‘ri tushushntirilsa jinoyatning oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Усмоналиев М., Каракетов Й. Криминология. -Т.: Янги аср авлоди. 2002. – Б.94.
2. Ф.Тахиров. Вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган жиноятлар. Ташкент-2022. – 19 б.
3. Иванов В.Г. Причинность и детерминизм. – СПб, 2014. – С. 14-15.
4. <https://lex.uz/>